

RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

ZAMONAVIY JAMIYATDA FANLARARO INTEGRATSIYA VA UNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI



INTEGRATSIYA – INNOVATSIYA –
RIVOJLANISH – KELAJAK

BILIM – ILM – INNOVATSIYA – TARAQQIYOT

**YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA “YASHIL MAKON”
UMUMMILLIY LOYIHASINI IJTIMOIIY AHAMIYATI**

**Bayeshanov Abdulla Mustafayevich
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik barqarorlikni ta’minlash kafolati sifatida ko‘rilayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasini ijtimoiy-falsafiy mohiyati hamda uni jamiyatni birlashtirish, vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, bu jarayon ekologik axloq va ekologik mas’uliyat bilan bog‘liqligi falsafiy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: “Yashil makon”, dunyoqarash transformatsiyasi, ekologik vijdon, ekologik tartib, ekologik barqarorlik, insonparvarlik, ekologik mas’uliyat.

Ma’lumki, bugungi global ekologik xavf-xatarlar kuchaygan, ekologik beqarorlik va krizis davrida, bashariyat va uning kelajagini asrash faqatgina texnologik yechimlarga bog‘liq emas. Endilikda jamiyatning tabiatga nisbatan axloqiy-falsafiy munosabatiga ko‘proq bog‘liqlik kasb etayapti. Buni anglash va amaliy harakatlarni shunga qarab rejalashtirish har qachongidan dolzarbdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirib kelinayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi shunchaki daraxt ekish va ko‘kalamzorlashtirish kompaniyasi emas. Bu Yangi O‘zbekistonda yangicha dunyoqarashning shakllanishi, yangicha ekologik tartib va ekologik barqarorlikka erishish uchun tashlangan dadil qadamdir. Bu loyiha nafaqat ekologik barqarorlik uchun ahamiyatli, balki ijtimoiy-falsafiy mohiyatga ham ega. Bu jarayon jamiyat dunyoqarashini transformatsiyasiga xizmat qilib, odamni biologik mavjudod sifatida tabiatning ajralmas bir qismi, ekanligini, borliqdagi o‘rnini anglashiga olib keladi.

Shuningdek, bu “Yashil makon” loyihasi Yangi O‘zbekiston jamiyatini birlashtirishga, vatanparvarlik ruhini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ko‘kalamzorlashtirish, daraxt ekib, bog‘ barpo etish jamoaviy, birlashib harakat qilishni talab etadi. Aynan mana shu maqsad yo‘lida xalq birlashadi. Vatanni ertangi kuni farovonligi, kelajak avladni barqaror ekologik muhitda yashashi uchun harakat

boshlanadi. Bu “ O‘zbekiston umumiy uyimiz”, “Vatan uchun” degan ichki hissiy kuchni uyg‘otadi. Mazkur loyiha milliy qadriyatlarimizni zamonaviy ko‘rinishda yashashga turtki bo‘ladi. Xalqimizning “hashar” deb nomlangan, bugungi kunda biroz qadsizlanib borayotgan an‘anasini zamonaviy ko‘rinishda yashab qolishiga, avlodlararo davom etishiga xizmat qiladi. Shuningdek, har bir fuqaro uchun huquqiy mas’uliyatdan tashqari, axloqiy burchni ham yuklaydi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Xalqimiz azaldan tuproqni, suvni, tabiatni muqaddas deb bilgan. “Birni kessang, o‘nni ek” degan dono maqol ham bejiz aytilmagan. Daraxt ekkan odamga uning savobi tegib turadi, deyilgan. Oilada farzand dunyoga kelsa, unga atab nihol ekilgan”¹ deganida kelajak avlod oldidagi insoniy burchni nazarda tutgan edi. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining insonparvarlik paradigmasi ekologik va axloqiy uyg‘unlikka asoslangan, kompleks yondashuvni taqozo etadi”². Davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlari turadi. Lekin bu manfaatlar faqatgina bugungi kunning moddiy ehtiyojlarini qoplashni o‘zi bilan chegaralanmaydi. Chinakam insonparvarlik ertangi kunni, kelajak avlodni toza va barqaror ekologik muhitda yashash huquqini, tabiiy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini bugundan g‘amini yeyish, ta’minlash demakdir.

Davlatimiz rahbarining taklifiga muvofiq, “daraxtlarni 3 yil parvarishlash, kasallikdan saqlash, sug‘orish xarajatlari ham investitsiya dasturiga kiritiladi. Sug‘orish tizimi bo‘yicha 2 ta tajriba amalga oshiriladi. Xususan, 27 ta tumanda sug‘orish tizimi yaratish uchun 1 tadan quduq qazishga ruxsat beriladi. Bahorda 14 ta tumanning tog‘ va adir qiyaliklarida qavat-qavat qilib, 500 gektar daraxt ekiladi. Viloyatlarda “Mening bog‘im” loyihasi bo‘yicha yashil hududlar va jamoat parklari barpo etish bo‘yicha topshiriqlar berildi. Bu maydonlar ekish mavsumigacha “Ochiq budjet” portaliga qo‘yilib, daraxt turlari bo‘yicha tavsiya va ularning narxi ko‘rsatiladi. Bunda parvarishlashda mas’uliyatsizlik qilgan shaxslarni mobil ilova orqali

¹ <https://yuz.uz/uz/news/avlodlarimiz-bizdan-keyin-ham-munosib-tabiiy-muhitda-yashashi-kerak--prezident>

² Jo‘rayev N. Ekofilozofiya va insonparvarlik: Yangi O‘zbekiston kontekstida falsafiy mushohada. // Falsafa va hayot. – 2023. – №3. – B. 10–14.

ogohlantirish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Hokimlarga barcha obodonlashtirish bo‘limlarini 20 tadan sug‘orish mini-texnikasi bilan ta‘minlash topshirildi”³. Bu sa’y-harakatlarning barchasi shaffof holda, bugungi va kelajak avlodni o‘ylab amalga oshirilyapti.

Yangi O‘zbekistonda “Yashil makon” loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar insonning tabiatga bo‘lgan munosabatini uning axloqiy fazilatlarining darajasi bilan o‘lchaydi. Nihol ekish, suvni isrof bo‘lishidan asrash shaxs ma’naviy qiyofasini belgilovchi mezondir.

Xulosa qilib aytqanda, “Yashil makon” konsepsiyasi jamiyatni jipslashuviga, ekologik axloqiy fazilatlarini shakllanishiga, tabiatni sevuvchi, uni himoya qiluvchilarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hamda o‘rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-90-sonli Farmoni. 30.05.2025 yil. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7552003>

2. Jo‘rayev N. Ekofilosofiya va insonparvarlik: Yangi O‘zbekiston kontekstida falsafiy mushohada. // Falsafa va hayot. – 2023. – №3. – B. 10–14.

3. BAYESHANOV, A. (2026). O‘zbekistondagi ekologik muammolarni bartaraf etishda biosentrizm va ekologik vijdon omilining ijtimoiy-falsafiy tahlili. «*ACTA NUUz*», 1(1.3), 50-52.

4. Karimova, S. (2025). Ma’naviyat va uni shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar. *Универсальная индексная библиотека инновационных исследований в современном мире: теория и практика*, 4(22), 81-84.

5. <https://yuz.uz/uz/news/avlodlarimiz-bizdan-keyin-ham-munosib-tabiiy-muhitda-yashashi-kerak--prezident>

6. <https://president.uz/oz/lists/view/7629>

³ <https://president.uz/oz/lists/view/7629>